N.M. Dementeva [4] soliq siyosatini davlat iqtisodiy siyosatining in'ikosi sifatida baholab, uning mustaqil ahamiyatga egaligini va soliqlarning ilmiy nazariyasiga asoslanishi zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, amalga oshirilayotgan soliq siyosati natijalari davlatning iqtisodiy siyosatiga kiritiladigan tuzatishlarni hamda soliq tizimini shakllantirish yo'nalishlarini belgilab beradi.

Karp M.V. [5] soliq siyosatini davlatning o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi umumiy moliyaviy siyosatining tarkibiy qismi sifatida ko'rib, unga soliq sohasidagi davlat faoliyati konsepsiyasi, soliq mexanizmi va soliq tizimini boshqarish kabi elementlarni kiritadi.

O. Sitnikova [6] konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchilar guruhini shakllantirishda aktivlarni tan olish yoki maxsus qayta baholash zarurligini, guruhga kirishdan oldin zararlarni o'tkazish tartibini ishlab chiqish lozimligini ta'kidlaydi. Shuningdek, konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchining moliyaviy-xo'jalik faoliyati xalqaro miqyosda yagona subyekt sifatida e'tirof etilishiga alohida e'tibor qaratish zarurligini qayd etadi.

Yu. Darkina [7] yirik soliq to'lovchilarning xususiyatlarini tahlil qilib, ularga katta hajmdagi pul oqimlari, keng ko'lamli hujjatlar aylanmasi, tarkibiy bo'linmalar integratsiyasi hamda mamlakat ichida va xorijda turli firmalar bilan hamkorlik qilish xos ekanligini ta'kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda soliq ma'murchiligini takomillashtirish jarayonlari, ularning iqtisodiy samaradorligi hamda normativ-huquqiy asoslari kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, institutsional va funksional tahlil tamoyillariga tayangan holda shakllantirildi.

Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus usullardan foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez usuli orqali soliq siyosati va soliq ma'murchiligidagi islohotlar tarkibiy jihatdan ajratib o'rganildi hamda ularning o'zaro bog'liqligi aniqlashtirildi. Induksiya va deduksiya usullari asosida umumiy fiskal siyosat tamoyillaridan kelib chiqib, soliq ma'murchiligining amaliy mexanizmlari baholandi. Taqqoslama tahlil usuli yordamida xorijiy tajriba va milliy amaliyot o'rtasidagi farqlar hamda o'xshash jihatlar aniqlanib, ularni milliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari asoslab berildi.

Normativ-huquqiy hujjatlar tahlili usuli orqali Soliq kodeksi, Prezident farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlarga kiritilgan o'zgartirishlar o'rganildi. Statistik ma'lumotlarni iqtisodiy tahlil qilish orqali yashirin iqtisodiyot ulushi, soliq tushumlari dinamikasi, imtiyozlar natijasida tadbirkorlar ixtiyorida qolayotgan mablag'lar hajmi kabi ko'rsatkichlar baholandi. Raqamli ma'lumotlarni qayta ishlashda mantiqiy umumlashtirish va iqtisodiy baholash usullaridan foydalanildi.

Shuningdek, soliq siyosati samaradorligini baholashda ko'pkomponentli yondashuv qo'llanilib, unda soliq yukining real darajasi, budjet daromadlari barqarorligi, maqsadli ko'rsatkichlarga erishish darajasi hamda raqamlashtirishning ma'murchilik samaradorligiga ta'siri kompleks tarzda baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur qonun hujjatlariga muvofiq Soliq kodeksi hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

2026-yil uchun asosiy soliq stavkalari o'zgarishsiz qoldirildi. Jumladan, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) — 12 foiz, foyda solig'ining bazaviy stavkasi — 15 foiz, jismoniy shaxslar daromad solig'i — 12 foiz, yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i — 1,5 foiz, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun yer solig'i — 0,95 foiz, ijtimoiy soliq — 12 foiz (budjet tashkilotlari uchun 25 foiz), aylanmadan olinadigan soliq esa 4 foiz miqdorida belgilandi.



Kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni shartli ravishda to'rtta asosiy yo'nalishga ajratish mumkin.

1-yo'nalish. "5-ochiq muloqot" doirasida ilgari surilgan takliflarni amaliyotga joriy etish

Mazkur yo'nalishda quyidagi chora-tadbirlar belgilandi:

a) Aylanmadan olinadigan soliq to'lash tizimidan ilk bor QQS va foyda solig'i to'lash tizimiga o'tayotgan tadbirkorlarga:

— bir yil muddatga foyda solig'ini to'lashdan ozod etish;

— QQS to'lovchisi bo'lish tartibini buzganlik uchun bir yil davomida jarima qo'llamaslik;

— buxgalteriya xizmatlari xarajatlarning 6 oy davomida har oy mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 3,5 baravaridan (4,5 mln so'mdan) oshmagan qismini to'langan soliq summasidan chegirish imkoniyatini berish.

Mazkur choralar natijasida tadbirkorlar ixtiyorida 1,2 trillion so'm mablag' qolishi prognoz qilinmoqda.

b) Foyda solig'i bo'yicha har oy bo'nak to'lovlarini amalga oshirishi lozim bo'lgan tadbirkorlik subyektlari uchun daromadning chegaraviy miqdori 10 mlrd so'mdan 20 mlrd so'mgacha oshirildi.

v) Korxonalar o'z mablag'lari hisobidan ijtimoiy infratuzilma obyektlarini (elektr, gaz, issiqlik, suv ta'minoti, kanalizatsiya va yo'llar) barpo etib, ularni tegishli tarmoq korxonalariga bepul topshirgan taqdirda, mazkur xarajatlarni foyda solig'i bazasidan chegirish huquqi berildi.

g) Sayyor soliq tekshiruvi natijasida hisoblangan moliyaviy jarima summasini 6 oy davomida teng ulushlarda to'lash imkoniyati yaratildi.

d) Kameral soliq tekshiruvi o'tkazilgan davr uchun aynan bir xil holat bo'yicha qayta kameral tekshiruv o'tkazish taqiqlandi. Shuningdek, soliq auditi davrida "avtokameral" tekshiruv amalga oshirilmaydi.

ye) Mulk, yer, QQS, aylanmadan olinadigan, daromad va ijtimoiy soliq bo'yicha hisobotlarni soliq organlari tomonidan shakllantirish tartibi joriy etildi. Soliq organlari hisobotni shakllantirib taqdim etadi hamda soliq to'lovchi uni 5 kun ichida o'zgartirish huquqiga ega bo'ladi. Belgilangan muddatda o'zgartirish kiritilmasa, bu hisobotga rozilik sifatida qabul qilinadi.

yo) Milliy va xorijiy marketpleyslar orqali eksport qilingan tovarlar uchun QQSni nol stavka asosida qaytarish tartibi belgilandi. Endilikda "Uzum Market", "Wildberries", "Ozon" kabi platformalar orqali amalga oshirilgan eksport operatsiyalari ham nol stavka bo'yicha soliq qaytarish mexanizmiga kiritildi.

j) Soliq qarzini soliq to'lovchining debitorlari hisobidan undirish mexanizmi joriy etildi. Bunda tadbirkor soliq organiga murojaat qilib, qarzni debitorlik qarzdorligi hisobidan undirishni so'rash huquqiga ega bo'ladi. Ushbu jarayon o'zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi.

z) Bir nechta soliq hisobotlari o'z vaqtida taqdim etilmagan taqdirda, ularning barchasi uchun bitta jarima qo'llanilishi belgilandi. Ilgari har bir hisobot uchun alohida jarima undirilardi (fuqarolar uchun BHMning 3 baravari — 1,2 mln so'm, mansabdor shaxslar uchun 10 baravari — 4,1 mln so'm).

i) Soliq hisobotini kechiktirib taqdim etganlik uchun ma'muriy jarima miqdori kichik tadbirkorlik subyektlarining mansabdor shaxslari uchun BHMning 10 baravaridan 3 baravarigacha (1,2 mln so'm), fuqarolar uchun esa 3 baravaridan 1 baravarigacha (412 ming so'm) kamaytirildi. Kichik tadbirkorlik subyektlariga yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar va kichik korxonalar kiradi.

k) Oxirgi 3 oy davomida soliq hisobotlarini o'z vaqtida topshirib kelgan tadbirkorlarga hisobotni 5 kungacha kechiktirib topshirgan taqdirda ma'muriy jarima qo'llanilmasligi belgilandi.

l) QQS guvohnomasining amal qilishini 30 kungacha soliq organi, 30 kundan ortiq muddatga esa sud qarori asosida to'xtatish mumkinligi belgilandi.

m) Aylanmasi 10 mlrd so'mgacha bo'lgan hamda soliq xavfi o'rta darajadagi tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatishda xulosa berish vakolati soliq organlaridan xususiy auditorlik tashkilotlari yoki soliq maslahatchilariga o'tkazildi. Avval bunday korxonalar faqat soliq organlari tomonidan yakuniy tekshiruvdan o'tkazilgach tugatilardi.

n) Hisobvara-fakturalarning xavf darajasiga asoslangan holda QQSni hisobga olish tartibi joriy etildi. Hisobvara-fakturalar xavf darajasi sun'iy intellekt (inson omilisiz) orqali aniqlanadi. Bunda yuqori xavf darajasiga ega bo'lgan hisobvara-fakturalar ulushi umumiy hajmning 10 foizidan oshmasligi nazarda tutilgan.

Tovarlar (xizmatlar) xaridoriga yuborilgan hisobvara-fakturaning xavf darajasini ko'rish imkoniyati taqdim etiladi. Yuqori xavf darajasiga ega hisobvara-fakturalar bo'yicha QQSni hisobga olish tartibi shundan iboratki, tovarlar (xizmatlar) xaridori soliq agenti sifatida QQSni budjetga to'laganidan so'ng uni hisobga olish huquqiga ega bo'ladi.

o) Elektron to'lov tizimlari va to'lov tashkilotlarining raqamli platformalarida generatsiya qilingan maxsus QR-kodlarni qo'llash nazorat-kassa texnikasi va hisob-kitob terminallaridan foydalanish tartibiga tenglashtirildi. Endilikda savdo yoki xizmat ko'rsatish shoxobchalarida xaridorlar uchun maxsus QR-kodlarning mavjud emasligi 5 mln so'm miqdorida jarima qo'llanishiga asos bo'ladi.



2-yo'nalish. 2026-yil uchun soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari va soliq ma'murchiligini takomillashtirish Soliq islohotlarini izchil davom ettirish hamda soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish doirasida quyidagi chora-tadbirlar nazarda tutilgan:

a) Elektron tijorat subyektlari uchun foyda solig'i stavkasi 10 foizdan 15 foizga, aylanmadan olinadigan soliq stavkasi esa 3 foizdan 4 foizga tenglashtirildi.

b) Resurs soliqlari bo'yicha quyidagi o'zgarishlar belgilandi:

— Yuridik shaxslar tomonidan mol-mulk va yer solig'i imtiyozlarini qo'llash maqsadli ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi. Maqsadli ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

1. yuridik shaxsning tovarlar (xizmatlar) aylanmasi imtiyoz summasidan ko'p bo'lishi;

2. kamida 3 nafar xodimga ega bo'lishi hamda xodimlarga eng kam ish haqining 2 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda ish haqi to'lanishi.

Mazkur tartib 2026-yil yakunlari bo'yicha 2027-yildan boshlab qo'llaniladi. Uni amaliyotga joriy etishning ayrim jihatlari yuzasidan alohida tartib ishlab chiqilishi nazarda tutilgan.

— Noturar obyektlar bo'yicha mol-mulk solig'i bazasini aniqlashda 1 kv.m uchun belgilangan minimal qiymat 7 foizga indeksatsiya qilindi. Natijada minimal qiymat:

Toshkent shahri uchun — 3,53 mln so'm (amalda 3,3 mln so'm),

Nukus shahri va viloyat markazlari uchun — 2,35 mln so'm (amalda 2,2 mln so'm),

boshqa hududlar uchun — 1,39 mln so'm (amalda 1,3 mln so'm) miqdorida belgilandi.

— Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer solig'ining bazaviy stavkalari 7 foizga indeksatsiya qilindi. Bunda xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga hududlar kesimida (daha, massiv, mahalla, ko'cha bo'yicha) bazaviy stavkaga 0,5 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi yoki oshiruvchi koeffitsiyentlar qo'llash vakolati berildi.

— 2026-yil 1-yanvardan boshlab qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun belgilangan stavkalarga Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahri xalq deputatlari Kengashlariga 0,5 dan 1,2 gacha kamaytiruvchi yoki oshiruvchi koeffitsiyentlar qo'llash vakolati berildi.

— Issiqxona xo'jaliklari egallagan yerlar uchun yer solig'i qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun belgilangan stavkalar asosida hisoblanadi.

— Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 7 foizga indeksatsiya qilindi. Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahri xalq deputatlari Kengashlariga tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqib, 0,7 gacha kamaytiruvchi yoki 1,5 gacha oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo'llash vakolati berildi.

Shuningdek, 2027-yildan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahri xalq deputatlari Kengashlariga yuridik shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'oriladigan yerlari lazerli tekislanmagan taqdirda suv solig'i stavkalariga 1,2 gacha oshiruvchi koeffitsiyent qo'llash vakolati berildi.

v) Kon-kimyo xom ashyosi hamda noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari 7 foizga indeksatsiya qilindi.

g) Aksiz solig'i bo'yicha:

— tamaki va neft mahsulotlariga aksiz solig'i stavkalari 7 foizga indeksatsiya qilindi;

— 2026-yil 1-apreldan boshlab neft mahsulotlariga aksiz solig'i stavkalari qo'shimcha ravishda 7 foizga indeksatsiya qilindi;

— 2026-yil 1-apreldan boshlab iste'molga tayyor 1 kg kartoshka chipslari uchun 15 ming so'm miqdorida aksiz solig'i joriy etildi.

Mazkur aksiz solig'i kartoshka chipslarini ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar hamda ularni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiruvchi shaxslar tomonidan to'lanadi.

d) Yo'l harakati qoidalarini buzilishini qayd etish bo'yicha tadbirkorlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarga QQS hisoblash tartibiga aniqlik kiritildi. Ushbu xizmatlar aylanmasiga QQS hisoblab chiqariladi hamda soliq bazasi QQSni o'z ichiga olgan haq summasidan kelib chiqib aniqlanadi.

ye) Tadbirkorlik faoliyatiga asossiz aralashuvni kamaytirish va tekshiruvlar shaffofligini ta'minlash maqsadida 2026-yil 1-iyuldan boshlab sayyor soliq tekshiruvlarini o'tkazishda soliq xodimlari tomonidan bodikameralardan foydalanish majburiy etib belgilandi.

yo) Kameral soliq tekshiruvi jarayonida soliq to'lovchilar tomonidan qo'shimcha asoslantiruvchi hujjatlar taqdim etilganda, soliq organlari ularni ko'rib chiqishi majburiy hisoblanadi. Huquqbuzarliklar belgilangan muddatda bartaraf etilgan taqdirda tadbirkorlar javobgarlikdan ozod etiladi.

j) Soxta tadbirkorlik va asossiz soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining oldini olish maqsadida import qilingan oziq-ovqat mahsulotlari 9 oy (go'sht va ho'l meva-sabzavotlar — 3 oy) davomida realizatsiya qilinmagan hamda ularning qiymati BHMning 500 baravaridan (206 mln so'm) ortiq bo'lgan taqdirda, mazkur holat sayyor soliq tekshiruvini o'tkazish uchun asos hisoblanadi.

z) Ko'chmas mulk va qurilish materiallari bozorini tartibga solish maqsadida ushbu obyektlar bo'yicha soliq bazasi tovarlarning bozor bahosidan kelib chiqib aniqlanishi belgilandi.

2024-yil davomida umumiy maydoni 1,8 mln kv.m bo'lgan qariyb 22,9 ming turar joy obyektining haqiqiy narxlarini pasaytirib ko'rsatilganligi natijasida 4,4 trln so'm soliq bazasi (1,1 trln so'm soliq summasi) kamaytirilgani aniqlangan.

Masalan, Namangan viloyatidagi MChJ tomonidan 69 kv.m maydonga ega kvartira 1 kv.m uchun 1,1 mln so'mdan (76 mln so'm) sotilgan bo'lsa, shunga o'xshash maydondagi boshqa kvartira 1 kv.m uchun 6,0 mln so'mdan (420 mln so'm) realizatsiya qilingan.

i) Qurilish va savdo sohasidagi tadbirkorlar tomonidan ustav kapitaliga kiritilgan tovarlar bo'yicha ma'lumotlarni (EHF, onlayn nazorat-kassa texnikasi cheki, bojxona yuk deklaratsiyasi, notarius tasdiqlagan oldi-sotdi shartnomasi va boshqa hujjatlar) hisobga olish tartibi belgilandi. Ustavga o'zgartirish kiritilgandan so'ng 15 kun ichida ushbu ma'lumotlar shaxsiy kabinet orqali soliq organlarining ma'lumotlar bazasida aks ettirilishi lozim.

k) Soliq yoki yig'implarni to'lamaslik bo'yicha jinoyat sodir etgan tadbirkorlarga QQS summasini tezlashtirilgan tartibda qaytarish mexanizmi qo'llanilmaydi. Amaldagi tartibga ko'ra, QQSni tezlashtirilgan qaytarish muddati 7 kunni, "AAA" reytingiga ega subyektlar uchun esa 1 kunni tashkil etadi.

3-yo'nalish. Tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari va qo'shimcha yengilliklar taqdim etish

Tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ularga qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida bir qator soliq yengilliklari belgilandi.

a) 2026-yil 1-yanvardan boshlab:

— Yillik aylanmasi 1 mlrd so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar (YaTT) va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 1 foiz miqdorida belgilandi.

Amaldagi tartibga ko'ra, 100 mln so'mgacha daromad oluvchi YaTT oyiga 65 ming so'mdan 1 mln so'mgacha soliq to'laydi, o'zini o'zi band qilgan shaxslar esa soliqtan ozod etilgan edi. Mazkur tartib bekor qilinmoqda.

Shuningdek, 2026-yil 1-yanvardan boshlab YaTT va o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyatini ixtiyoriy ravishda raqamli platformalar orqali amalga oshirishi mumkin. Ushbu platformalar ro'yxatdan o'tish va faoliyatni to'xtatib turish, soliq hisobotlarini avtomatik shakllantirish va yuborish, QR-kodlar orqali to'lovlarni qabul qilish hamda elektron hisobvara-fakturalarni rasmiylashtirish imkoniyatlarini taqdim etadi.

— Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining shaffof faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida mazkur mahsulotlar realizatsiyasi uchun QQSning "nol" stavkasi joriy etilmoqda hamda "zachetga" olingan QQS summasini 3 kun muddatda avtomatik qaytarish tartibi belgilanmoqda.

Amaldagi tartibga ko'ra, ushbu subyektlar uchun QQS stavkasi 12 foizni tashkil etadi va "zachetga" olingan QQS summasi 30 kungacha muddatda qaytariladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, mazkur chora natijasida 13,5 mingta qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilari ixtiyorida 700 mlrd so'm mablag' qolishi kutilmoqda.

— Zargarlik buyumlari hamda qimmatbaho metall va toshlardan yasalgan yarim tayyor mahsulotlarga nisbatan QQS imtiyozlari bekor qilinmoqda. Bunda zargarlik mahsulotini ishlab chiqaruvchilar QQSni mahsulot narxi bilan uning tarkibidagi qimmatbaho metall yoki toshlar qiymati o'rtasidagi ijobiy farqdan hisoblab to'laydi.

2026-yil 1-yanvardan boshlab zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish yoki realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari daromadidan qat'i nazar QQS to'lovchisi sifatida e'tirof etiladi.

— Foyda solig'i bo'yicha daromadga asoslangan imtiyozlar o'rniga xarajatlarga asoslangan imtiyoz mexanizmi joriy etilmoqda. Foyda solig'i imtiyozlari amortizatsiya qilinadigan asosiy vositalarni tezlashtirilgan amortizatsiya qilish shaklida, 3 yildan oshmagan muddatga taqdim etilishi mumkin. 2026-yil 1-yanvarga qadar berilgan imtiyozlar amaldagi tartib asosida qo'llaniladi.

Masalan, "A" korxona tezlashtirilgan amortizatsiya huquqiga ega. Uning 2025-yildagi jami daromadi 63 mlrd so'mni, jami xarajatlari 52 mlrd so'mni tashkil etgan. Asosiy vositalarning qoldiq qiymati 36 mlrd so'mni tashkil etadi. Taklif etilayotgan tartibga ko'ra, korxona 11 mlrd so'm (63–52 mlrd so'm) miqdorida tezlashtirilgan amortizatsiyani qo'llashi mumkin va natijada soliqqa tortiladigan foyda nolga tenglashadi. Shunday qilib, kelgusi 3 yil davomida qariyb 33 mlrd so'm miqdoridagi asosiy vositalar qiymatini tezlashtirilgan amortizatsiya qilish orqali foyda solig'ini to'lamaydi.

— Meva-sabzavotlarni zamonaviy qadoqlarda realizatsiya qiluvchi subyektlar uchun foyda va ijtimoiy soliq stavkalari 1 foiz etib belgilandi. Natijada tadbirkorlar ixtiyorida 17,9 mlrd so'm mablag' qolishi kutilmoqda.

— Avtomobillarni quvvatlash stansiyalari foyda va aylanmadan olinadigan soliqtan ozod etilib, mol-mulk va yer solig'i 1 foiz miqdorida belgilandi. Bu orqali 5,9 mlrd so'm mablag' tadbirkorlar ixtiyorida qolishi prognoz qilinmoqda.

— Mahalliy sanoat korxonalarining har bir xodimni tashish va ovqatlantirish uchun 412 ming so'mgacha bo'lgan xarajatlari ijtimoiy soliqtan chegiriladi. Natijada 73,1 mlrd so'm mablag' tadbirkorlar ixtiyorida qolishi kutilmoqda.



— Issiqxona xo'jaliklari uchun ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz etib belgilandi. Shuningdek, kredit to'lanmagani sababli bank balansiga o'tgan issiqxonalar va garovdagi mulklar sotilganda QQSdan ozod etiladi hamda bank balansiga o'tgan kundan boshlab sotilgunga qadar yer solig'idan ozod qilinadi. Ushbu choralar natijasida 279,7 mlrd so'm mablag' tadbirkorlar ixtiyorida qolishi kutilmoqda.

v) 2028-yil 1-sentabrgacha:

Paxta-to'qimachilik klasterlari, to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalari uchun ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz etib belgilandi. Natijada 275 mlrd so'm mablag' tadbirkorlar ixtiyorida qolishi kutilmoqda.

g) 2030-yil 1-yanvarga qadar:

Milliy film, serial va bolalar kontentini yaratuvchi tadbirkorlik subyektlari foyda solig'idan ozod etildi hamda ular uchun ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz miqdorida belgilandi.

4-yo'nalish. Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan yangiliklar

Bugungi kunda mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, biznes subyektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratish hamda fuqarolar uchun qo'shimcha qulayliklar taqdim etish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.12.2025-yildagi "Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-246-son Farmoni¹ mazkur yo'nalishda qabul qilingan muhim normativ-huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushi 505 trln so'mni yoki 34,8 foizni tashkil etadi. Shundan 122 trln so'm (24,1 foiz) yashirin iqtisodiyotga, 384 trln so'm (75,9 foiz) esa norasmiy iqtisodiyotga to'g'ri keladi.

Iqtisodiyotdagi bunday holatlar davlat budjetida sezilarli yo'qotishlarni yuzaga keltirib, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini to'laqonli amalga oshirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur mablag'lar hisobiga qo'shimcha maktablar, shifoxonalar va yo'llar qurish, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish imkoniyati mavjud bo'lar edi.

Masalan, 2024-yilda ijtimoiy soha xarajatlari uchun 152,3 trln so'm mablag' ajratilgan bo'lib, shundan ta'lim sohasiga 71,2 trln so'm, sog'liqni saqlashga 36,0 trln so'm, madaniyat va sportga 5,9 trln so'm, pensiya va nafaqalar uchun 31,6 trln so'm yo'naltirilgan.

Yashirin iqtisodiyot, asosan, oldi-sotdi va boshqa hisob-kitoblarning naqd pulda amalga oshirilishi natijasida shakllanadi. Shu bois ko'plab rivojlangan davlatlarda naqd pul orqali hisob-kitoblarni ulushi 3–5 foiz atrofida bo'lsa, 2024-yilda O'zbekistonda muomaladagi naqd pul ulushi 19,2 foizni tashkil etgan.

2026-yil 1-apreldan boshlab elektr energiyasi, tabiiy gaz va ichimlik suvidan foydalanganlik uchun to'lovlarni bank kartalari yoki elektron to'lov tizimlari orqali amalga oshirish belgilandi. Ushbu tartib to'lov jarayonlarining shaffofligini oshirish, noqonuniy naqd pul yig'imi va qalbakilashtirilgan kvitansiyalar holatlarining oldini olishga xizmat qiladi. Shuningdek, to'lovlarni masofadan turib, inson omilisiz amalga oshirish imkonini yaratadi. Mazkur tizim bosqichma-bosqich davlat xizmatlari ko'rsatish jarayonlariga ham joriy etiladi.

Aholi tomonidan alkogol va tamaki mahsulotlarini xarid qilish jarayonida ham naqdsiz to'lov tizimini kengaytirish mahsulotlarning haqiqiylikni nazorat qilish va noqonuniy aylanmani qisqartirishga xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, transport vositalariga yoqilg'i quyish hamda elektr quvvatlash xizmatlarida to'lovlarning naqdsiz shaklga o'tkazilishi nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, ko'chmas mulk obyektlari, uy-joylar hamda ishlab chiqarilganiga 10 yildan oshmagan avtotransport vositalarini sotish va sotib olishda naqdsiz hisob-kitoblarni joriy etish firibgarlik xavfini kamaytirishga hamda bitimlar shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda 83 trln so'mlik ko'chmas mulk hamda 75 trln so'mlik avtotransport vositalari oldi-sotdi operatsiyalari amalga oshirilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy tajribani o'rganish natijalari soliq siyosati samaradorligini baholashda ko'pkomponentli mualliflik yondashuvini shakllantirish imkonini berdi. Mazkur yondashuv iqtisodiyot bo'yicha umumiy soliq yukini real baholashda soliqqa tortilmaydigan yoki imtiyozli aylanmalar va obyektlarni, shuningdek alohida soliq to'lovchilar toifalari hamda tarmoqlar kesimida differensial yondashuvni qo'llash zarurligini asoslaydi. Shu bilan birga, davlat funksiyalarini barqaror moliyalashtirish maqsadida davlat budjeti daromad qismining soliq tushumlari bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarini kafolatli ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Resurs yondashuvi va maqsadli boshqaruv tamoyillari asosida amalga oshirilayotgan soliq siyosatining sifatini oshirish, belgilangan strategik maqsadlarga erishish darajasini tizimli baholash ham ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Yuqorida bayon etilgan yondashuv va takliflarni O'zbekistonda soliq

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 10.12.2025 yildagi PF-246-son <https://lex.uz/uz/docs/-7897630>



ma'murchiligini yanada takomillashtirish hamda raqamlashtirish jarayonlariga bosqichma-bosqich joriy etish soliq boshqaruvi samaradorligini oshirish, budjet barqarorligini mustahkamlash va iqtisodiyotning shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Жўраев А., Сафаров Ғ. Солиқ назарияси: ўқув қўлланма. – Т.: "Iqtisod-moliya", 2005. – 48 б.
2. Аронов А.В., Кашин В.А. Налоги и налогообложение: учебное пособие. – М.: Магистр, 2007. – С. 99–100.
3. Камалнев Т.Ш. Налоговое администрирование крупнейших налогоплательщиков: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Москва, 2009.
4. Майбуров И.А. Налоги и налогообложение: учебник для студентов вузов / под ред. И.А. Майбутова. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 655 с.
5. Юнак А.А. Проблемы правового регулирования налогового контроля и учета крупнейших налогоплательщиков: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Москва, 2009. – С. 12.
6. Дементьева Н.М. Налоговая политика государства. – Электронный ресурс. – URL: https://nsuem.ru/science/publications/science_notes/issue.php?ELEMENT_ID=1689 (дата обращения: ko'rsatilmagan).
7. Карп М.В. Налоговый менеджмент: учебник для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2001. – 39 с.
8. Ситникова О.В. Совершенствование налогообложения крупнейших консолидированных налогоплательщиков: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Москва, 2012.
9. Даркина Ю.А. Особенности налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков // Interactive Science. – 2019. – № 3 (37).
10. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari. – Elektron manba. – URL: <https://www.soliq.uz> (murojaat sanasi: ko'rsatilmagan).

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100